

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701348**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Ushbu gapda tobe qismi ham, hokim qismi ham yasama so'zdan iborat bo'lgan birikmalar sonini aniqlang.
- A) 3 B) 5 C) 2 D) 4
2. Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, larzakor chaqmoqlar dilga jo'shqinlik beradi, sho'x qushlar insonga kuch-quvvat ato etadi. Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so'zlarning yetakchi morfemalari qaysi so'z turkumlariga mansub?
- 1) ot; 2) sifat; 3) fe'l; 4) ravish; 5) taqlid so'z; 6) undov so'z
- A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6
3. Qaysi gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan sodda yasama fe'l ot so'z turkumidan hosil qilingan?
- A) *U do'stlikning bu darajada astoydil harakat qilishidan juda quvondi.*  
 B) *Saroy ahli hovli o'rtafiga o'rnatilgan so'rida choyxo'rlik qilishi.*  
 C) *Shundoq chiroyli qiz ham bunaqa yig'loqi bo'ladi.*  
 D) *Yolg'iz sen emassan, otam, vujuddagi o'qdan qiyalib tolgan.*
4. Qaysi gap imlosida olti o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?
- A) *Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.*  
 B) *Shunday bo'lmos'iga asos bor edi, chunki ular bir ko'chada yashab, o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.*  
 C) *Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksakkilda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga oxshash jon odamlarlarning shuuriga sig'masdi.*  
 D) *Bu falokatga yo'liqgan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi.*
5. Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?
- A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
6. Daraxtni undiradigan, o'stiradigan, mvasini laziz qiladigan quyosh, yer va soy bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir. Ushbu gap haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri emas?
- A) ega, kesim, ega uyushgan  
 B) barcha aniqlanmishlar uyushiq bo'laklarga tobelanigan  
 C) tobe va hokim qismilari uyushgan bo'lak bilan ifodalangan moslashuvli tobe bog'lanish hosil bo'lgan  
 D) vositasiz to'diruvchi uyushiq kesimga bilvosita bog'langan
7. Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand. Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
- A) Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.  
 B) To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.  
 C) Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelanigan.  
 D) Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimga bevositga bog'langan.
8. Qaysi gapdagi so'zlar tarkibida ismlarning va fe'llarning munosabat shakllari o'zaro omonimligini namoyon qilgan?
- A) Chin do'sti - tug'ishgan bilan teng.  
 B) Mevali daraxt yerga engashar.  
 C) Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam - dilim.  
 D) Onangni kafitingda tutsang, singlingni kifitingda tut.
9. Qaysi javobdagi barcha fe'llarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?
- A) Behudaga dori ichishni qo'ysangiz, dardingiz arib, sog'ayarmidizing?  
 B) Bog'bon uni so'ligan deb guman qildi-yu, yulib tashladi.  
 C) Jayron tog'dan tog'ga o'tib, qayerga borishini bilmasdi.  
 D) Karimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishloq tomon yurdi.
10. Metafora usulida ma'no ko'chishi sodir bo'lgan qaysi birlikda paronim juftiga ega so'z qatnashgan?
- A) so'yashamoq B) darz piyola C) temir intizom D) tuz totmoq
11. Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va foydalanuvching, ya'nii so'zlovchi yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi. Ushbu gapdagi bog'lovchilar haqida bildirilgan to'g'ri hukmlarni belgilang.
- 1) biriktirov bog'lovchisi uyuishiq vositasiz to'diruvchilarni bog'lash uchun qo'llangan; 2) aniqlov bog'lovchisi uyuishiq aniqlovchilarni bog'lash uchun qo'llangan; 3) ergashtiruvchi bog'lovchi ajratilgan uyuishiq aniqlovchini ajratish uchun qo'llangan

- A) I, 2, 3 B) I, 2 C) I, 3 D) 2, 3
12. Quyidagi nechta fe'l ham o'zlik, ham majhul nisbatda qo'llanishi mumkin? **otmoq, qurmoq, qo'shmoq, bo'lmoq, urmoq, yoymoq**
- A) 2ta B) 4ta C) 5ta D) 3ta
13. Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo 'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkum(lar)iga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan bo'laklar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.
- A) *Yordamchi so'zlarning barchasi ko'makchilar hisoblanadi.*  
 B) *Yordamchi so'zlar bilan shakllangan bo'laklarning kesimga bilvosita va bevosita tobelanishi kuzatiladi.*  
 C) *Yordamchi so'zlar ikki o'rinda otni, bir o'rinda fe'lni hokim qismiga tobelanitirgan.*  
 D) *Yordamchi so'zlar bir o'rinda hol, ikki o'rinda to'ldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan.*
14. Ravishning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor asta shitirladi.  
 B) Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbur bo'ldik.  
 C) Allamahalgacha farg'onalik chorvadorlar o'tovida gurunglashib o'tirdik.  
 D) U kamtarona tabassum bilan sekin qarab qo'ydi.
15. Gurkiragan olov - dilim yo'loshi, To'lqin urgancha daryo - ko'zlarim yoshi, Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za- Ko'hna do'star xoki - qo'li yo boshi. Ushbu gap...
- A) aralash murakkab qo'shma gap  
 B) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap  
 C) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap  
 D) qismilari uyushgan murakkab qo'shma gap
16. Berilgan so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga chuqur til orqa sirg'aluvchi jarangsiz undosh qo'yilishi kerak?
- ...alifa, ...ilvatgoh, mu...olif, ...assos, e...rom, shuku...li, ta...sin  
 A) to'rttasida B) ikkitasida C) beshtasida D) uchtasida
17. Quyida berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qaysi birida tinish belgilaringin qo'llanish qoidasiga riyoq qiliimagin?
- A) "Endi hamisha xonadan sohibining gapiga qulog solgaysiz, - dedi Bibixonim keliniga, - aytganlarini so'zsiz bajargaysiz".  
 B) Guli dedi: "G'azaldan bahr topmag'an kim?"  
 C) Ertoyevning gapini eshitmagan inobat birinchi unga yuzlanib: "Umarov uka, - dedi sekin, - unisiyam kerak, bunisiyam kerak".  
 D) Qaynonasi Bibixonim: "Biz in'omming teran ana'nesi bor, - dedi sirg'alarini kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan".
18. Qaysi gapda fe'lning fe'lga tobelanishidan hosil bo'lgan uchta holli so'z birikmasi mavjud?
- A) Shundagina u Shavkatning boshiga yuzini bosgancha o'ksib-o'ksib yig'lab yubordi.  
 B) Mashina peshanasiga o'rnatilgan oynaga chirsillab yomg'ir tomchilari urila boshladi.  
 C) Bolakay baqirib gapirayotgan bu notanish amakidan qo'rqqanidan yig'lab qochib ketdi.  
 D) Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-katta ochgancha shiftga tikilib goldi.
19. Eliboylar bundan ko'chib boradi, Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb. Ayrilik o'tiga bag'rini dog'lab, Borayotir qalmoq elni so'roqlab... Keltirilgan parchada tobe qismi fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'z bilan ifodalangan so'z birikmalarining turini aniqlang.
- A) boshqaruvi, moslashuvli, bitishuvli so'z birikmasi  
 B) moslashuvli, boshqaruvi so'z birikmasi  
 C) boshqaruvi, bitishuvli so'z birikmasi  
 D) moslashuvli, bitishuvli so'z birikmasi
20. Ayol - go'zallik, nafosat va muhabbat timsoli, ayol bilan bog'liq tuyg'ular Sharqda qadimdan qadirinab kelgan. Ushbu gapdagi moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.

- A) 5ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
21. Vositasiz to'ldiruvchi yasama fe'l bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan gapni aniqlang.  
 A) *Dangasaning nonni yeyishini ko'r.*  
 B) *Radiodan taralayotgan kuy qalblarga orom bag'ishlar edi.*  
 C) *Nonni ta'riflashga har qanday so'z ojizlik qiladi.*  
 D) *Bolalar ota-onani, ustozni hurmat qilishlari kerak.*
22. Yunonistonlik faylasuf Arastu o'g'llini chaqirib shu so'zlarni aytibdi: -  
 Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlarini o'rganish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora yo'q ekan.  
 Keltirilgan parchada necha o'rinda yasama so'z qo'llangan.  
 A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
23. Quyidagi berilgan qo'shimchalardan fe'l so'z turkumi doirasida omonimligini namoyon qila oladigan qo'shimchalarni aniqlang.  
 1)-vchi 2)-kash 3)-qi 4)-ish 5)-ar 6)-ay  
 A) 2, 3, 4 B) 4, 5, 6 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 5, 6
24. **Atamashunoslik** so'zi tarkibidagi ikkinchi ko'makchi morfema qaysi so'z turkumini yasash xizmat qilgan?  
 A) *sifat* B) *fe'l* C) *ravish* D) *ot*
25. Qaysi javobda Haynrix Haynening she'riy kiroblari nomi berilgan?  
 A) "Yol lavhalari", "Oqshom qo'shiqlari"  
 B) "Oqshom qo'shiqlari", "E'tirof"  
 C) "Romanserov", "E'tirof"  
 D) "Yol lavhalai", "Lukresiya"
26. Quyidagi berilgan fikrlar qaysi ijodkorga tegishli?  
 "Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'urur kurtaklarini uyg'otishi va ajodolar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin. Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik – inson shaxsi shakllanishing ilkdavri hamdir".  
 A) *T. Malik* B) *O. Sharafiddinov* C) *M. Osim* D) *Ch. Aytmatov*
27. Kelgindi hukumat qutqusiga, va'dalarga uchib, o'z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog'lab berishdan toymaydigan kimsalar "ikki yuzli ishbuzlarlar, shaytonlar" deya tilga olingan she'r va uning muallifini aniqlang.  
 A) "Yong'in", *Cho'lp'on*  
 B) "Mirrix yulduziga", *Fitrat*  
 C) "Xazon" *Cho'lp'on*  
 D) "O'gut", *Fitrat*
28. Sergey Yesenining qaysi she'ri mazmunida Eron bilan Rossiyada ayollarga munosabat masalasidagi farqlar aytib o'tiladi?  
 A) "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan..."  
 B) "Bu dunyoda men bir yo'lovchi..."  
 C) "Xurosonda bir darboza bor..."  
 D) "Singlimga xat"
29. Qaysi shoir odamlarning zlzila paytidagi ruhiy holatini "Asablar tuproqqa cho'kkан edi tiz" tarzida bergen?  
 A) *Maqsud m Shayxzoda* B) *Erkin Vohidov* C) *Abdulla Oripov* D) *Shuhrat*
30. "Bir tup o'rik...  
 Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida Ko'lankasi bilan do'st tutinibdi", degan misralaar muallifini aniqlang.  
 A) *Muhammad Yusuf* B) *To'ra Sulaymon* C) *Mirtemir* D) *Asqad Muxtor*
31. Shahrabsab ahli zodasidan men, Sa'dning xonavosidin men. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi ushbu parcha qaysi kun hikoyasidan olingan?  
 A) *payshanba* B) *chorshanba* C) *dushanba* D) *shanba*
32. Qaysi asar Alisher Navoiyning falsafiy qasidasi hisoblanadi?  
 A) *Tuhfatul-afkor* B) *Sab'at-u abhur* C) *Munshaot* D)  
 "Nasoyim ul-muhabbat"
33. "Gul yaprog'i asalga tushgandek, uni beshikka bog'ladilar. Uni baxt bilan saodat doya singari odat bo'yicha tarbiyaladilar; bir lahma ham undan bexabar qolmang, ko'z qorachig'idek asradilar. Uni ko'z yoshini saqlagandek ko'zda asradilar".  
 Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon go'dakligi haqidagi she'riy misralarning nasriy bayoni berilgan?  
 A) *Farhod* B) *Qays* C) *Layli* D) *Shirin*
34. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida Sodiqni maktabdag'i halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olishda ayblagan adabiy qahramonni aniqlang.  
 A) *Mirsalim* B) *Sa'dullayev* C) *Shukurov* D) *M. Abdurahmonova*
35. "Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan ko'k maysalı, tiniq suvli yoz kelmasmu?"  
 Ushbu ibratli fikrlar keltirilgan asar nomi va muallifini toping.  
 A) "Hiybat ul-haqoyiq", *Ahmad Yuknakiy*  
 B) "Devonu lug'ot it-turk", *Mahmud Koshg'ariy*  
 C) "Nasihatlar", *Abay*  
 D) "Qutadg'u biling", *Yusuf Xos Hojib*
36. Tig'i ishq-u xanjari nozingdin o'ldum subh-u shom, Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.  
 Baytda qo'llangan she'riy san'atlar turimi aniqlang.  
 A) *tanosub, tardi aks* B) *tanosub, takrir* C) *tanosub, tarse'* D) *tashbeh, talmeh*
- ### BIOLOGIYA
37. Oq ko'zli erkak drozofila pashhasining somatik hujayrasi mitoz sikli metafaza bosqichida ko'z rangini belgilovchi allellardan A va a genlari soni nechaga teng?  
 A) *A-1 va a-2*  
 B) *A-0 va a-1*  
 C) *A-0 va a-2*  
 D) *A-2 va a-2*
38. Tishlarning qoramir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchidi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?  
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishi ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishirilgandan olingan avlodning necha foizini genotip jihatdan ota-onadan farq qiluvchi organizmlar tashkil qiladi.  
 A) 75 B) 25 C) 37,5 D) 31,25
40. Inversiya (I) va Insersiya (II) tushunchalariga mos ta'riflarni juftlang. (a) va (b) qanday nomlanadi?  
 a) xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi;  
 b) xromosoma ayrim qismining ortishi;  
 c) DNK bo'lagi genomning ma'lum joylariga kirishi;  
 d) o'simliklarni iqlimlashtirish;  
 A) *I-a; II-c*  
 B) *I-c; II-d*  
 C) *I-c; II-a*  
 D) *I-b; II-c*
41. Energetik almashinuvining anaerob bosqichda 560 kJ energiya ATF da to'planadi. Aerob bosqichda esa 5800 kJ energiya issiqqlik sifatida tarqaladi. Energetik almashinuvdag'i jami energiya miqdorini (kJ) toping. (birinchi bosqichda 60 kJ energiya ajralgan)  
 A) 14400 B) 14460 C) 15500 D) 15520
42. Diploid va tetraploid makkajo'xori navlarining chatishirilganda hosil bo'lgan zigotada xromosomalar soni nechta bo'lishi aniqlang?  
 A) 27 B) 36 C) 30 D) 28
43. Organizmning ikkinchi nomi va qaysi turkumga masubligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 A) *soxta kurakburun-qilquyruq-bakra baliqlar*  
 B) *kapcha ilon-kobra-ilonlar*  
 C) *bukri baliq-gorbusha-karpsimonlar*

- D) qashqaldoq-bo'rsiq-suvsarsimonlar
44. Hayvonlar haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) Cho'l toshbaqasining suyak va muguzdan iborat kosasi qovurg'a, ko'krak, bel, dumg'aza umurtqalarini va o'mrov suyaklari bilan tutashgan.  
 B) Ko'l baqasining o'pka va terisiga ketuvchi kapillyardagi qon tarkibida CO<sub>2</sub> konsentratsiyasi kislordoga nisbatan yuqori bo'ladi.  
 C) Oqchaning yurak qorinchasidan chiqqan qon qorin aortasidan jabraga, undan orqa aortaga chigadi.  
 D) Gulmoy balig'ining bosh qutisi qisman suyakka aylangan, umurtqaga birikkan suzgich kamari va suzgich yollaridan tashkil topgan orqa suzgichining ortida yana bitta suzgich bo'ladi.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlod; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;  
 a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtiozavr  
 A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d  
 B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f  
 C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d  
 D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Biogen migratsiyaning ikkinchi turiga mos keluvchi jarayonlarni aniqlang.  
 1) tugunak bakteriyalar tomonidan azotning o'zlashtirilishi; 2) dukkaklı o'simliklarda fotosintezning sodir bo'lishi; 3) laminariyada yodning to'planishi; 4) foraminiferalardan ohatkosh konlarinining hosil bo'lishi; 5) xrokokkning fotosintez qilishi; 6) ulvada organik moddalar to'planishi  
 A) 1,4,5 B) 2,3,6 C) 1,3,5 D) 2,4,6
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoleksin ishlab chiqarishi  
 B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi  
 C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi  
 D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminoz rivojlanishi
48. Qanday genlar belgining rivojlanishiga bevosita ta'sir etmaydi, balki asosiy gen faoliyatini boshqaradi?  
 A) polimer genlar, ingibitor genlar  
 B) komplementar genlar, polimer genlar  
 C) ingibitor genlar, modifikasiator genlar  
 D) modifikasiator genlar, polimer genlar
49. Odamning orqa miyasiga xos bo'lgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 1) Orqa miya to'qimasining yallig'lanishi miyelit deb ataladi.  
 2) Polimiyyelit kasalligida tegishli segment boshqaradi va a'zolarning sezuvchanligi va harakati susayadi yoki butunlay yo'qoladi.  
 3) Orqa miyaning dastlabki 8 ta segmentida joylashagan nerv markazlari qo'lning ichki yuzasidagi teri va muskullarning sezuvchanligi va harakatini ta'minlaydi.  
 4) Orqa miyani o'rab turuvchi pardanining tashqi qismi qattiq, o'rta qavaqtı o'rgimchak to'rsimon, ichki qavati yumshoq parda deyilib, o'rta va tashqi parda orqa miya suyuqligi bo'ladi.  
 A) 1,4 B) 2,3 C) 3,4 D) 1,2
50. Odamlarda yurak qorinchalarining sistola holatida qaysi klapanlar yopiq (a), qaysi klapanlar ochiq (b) bo'ladi?  
 1) chap qorincha va aorta o'rtasidagi yarimoysimon klapan; 2) o'ng qorincha va o'pka arteriyasi o'rtasidagi yarimoysimon klapan; 3) chap bo'lmacha va chap qorincha o'rtasidagi ikki tavaqali klapan; 4) o'ng bo'lmacha va o'ng qorincha o'rtasidagi uch tavaqali klapan  
 A) a-2,4; b-1,3  
 B) a-3,4; b-1,2  
 C) a-1,2; b-3,4  
 D) a-1,3; b-2,4
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskul bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskulni hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirop etadi
- A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odamning bosh miyasiga xos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.  
 A) Bosh miya katta yarimsharlarning sezish zonasini hujayralari sezgi organlaridan kelayotgan impulslarni qabul qiluvchi oly nerv markaz hisoblanadi  
 B) Bosh miyaning stvol qismidagi nerv hujayralari shartsiz reflekslarning nerv markazi hisoblanadi  
 C) Bosh miya shikastlanganda qo'l-oyoq tonusi pasayib, falajlangan oyoq harakatsiz osilib qoladi  
 D) Uzunchoq miyadan chiquvchi adashgan nerv tolosi parasimpatik nerv sistemasining bir qismi bo'lib, qorin bo'shilg'ining yuqori qismida joylashgan organlar ishini boshqaradi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Terining derma qavatida sovuqni va siyapalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'rigini sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
 B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
 C) Quлоqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.  
 D) Harakat analizatorining oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining orqa markazi egatida joylashgan.
54. Metamorfoz jarayonida g'umbaklik bosqichini o'taydigan hasharotlar turkumlarini aniqlang.  
 A) ikki qanotlilar, pardaganotlilar, tangachaqanotlilar, chumolilar  
 B) qo'ng'izlar, arilar, yaydoqchilar, kapalaklar  
 C) ikki qanotlilar, pardaganotlilar, tangachaqanotlilar, burgalar  
 D) qo'ng'izlar, arilar, kapalaklar, pashshalar, chumolilar
55. Zarar keltiruvchi hasharotlar turkumlari bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 1) hasva; 2) olma qurti; 3) kuya; 4) chigirkta; 5) bezgak paraziti; 6) so'na; 7) oq chumoli; 8) kana; 9) iskabtopar; 10) trixogramma;  
 a- to'g'riqanotlilar; b- qandalalar; c-tangachaqanotlilar; d-ikki qanotlilar; e-termitlar  
 A) b-1; d-6; e-8 B) a-4; b-1; c-3; d-9 C) a-4; c-2; d-9,10; e-7 D) a-4; b-1; d-5; e-7
56. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.  
 1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulkisi  
 A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) 1,2,5 D) 3,4,5
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra  
 A) a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8  
 B) a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9  
 C) a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7  
 D) a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9
58. Yirtqich umurtqali (a) va o'txo'r umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.  
 1) kojan; 2) zlatka; 3) aureliya; 4) tipratikon; 5) ko'l baqasi; 6) tillako'z; 7) suvilon; 8) termit; 9) hasva qandalasi; 10) bizon  
 A) a-5,7; b-2,6  
 B) a-1,10; b-6,9  
 C) a-4,5; b-2,8  
 D) a-1,7; b-3,6
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.  
 1) ossillatoriya; 2) temir bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) kalina; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi  
 A) a-1,2; b-5,6,7  
 B) a-2,3; b-6,7,8  
 C) a-2,3; b-4,5,6  
 D) a-3; b-6,8,9
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarni aniqlang.  
 1) gommox qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leshshaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikası

- A) 1,4   B) 2,5   C) 6,7   D) 3,6
61. Mitozning metafazasida 32 ta xromatidlarga ega hujayralarni aniqlang.  
1) drozofila zigotasi; 2) olchaning mikrosporasi; 3) to'g'olchaning murtak hujayrasi; 4) drozofila ichak epiteliysi hujayralari; 5) olcha arxeosporasi; 6) tog'olcha o'sish konusining hujayralari  
A) 2,5   B) 3,4   C) 1,3   D) 2,6
62. Baqa lichinkasida tashqi jabralarining ichki jabralariga almashinishi o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?  
A) *genotipik-ontogenetik*  
B) *fenotipik-modifikatsion*  
C) *fenotipik-ontogenetik*  
D) *genotipik-rekombinativ*
63. BamHI restriktaqasi GGATCC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHi restriktaqasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulalidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlari orasidagi masoфа 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?  
A) 480   B) 354   C) 370   D) 320
64. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchasi (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?  
1) lavlagi; 2) yantoq; 3) baliqko'z; 4) tok; 5) shirinmiya; 6) kanop; 7) no'xot; 8) yeryong'oq  
A) a-1,2,3; b-7,8  
B) a-1,3; b-5,7,8  
C) a-2,3,4; b-5,7,8  
D) a-4,6; b-5,8
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
A) *a-umumi gulpoяa qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoяada gullar ketma-ket joylashgan*  
B) *a-asosiy gulpoяasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rалган*  
C) *a-asosiy gulpoяasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoяasi shoxlangan*  
D) *a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rалган; b-gullar gulpoяaga uzun bandlar bilan birikadi*
66. Rezavor meva hosil qiladigan o'simlik navlarini aniqlang.  
1) Zarg'aldoq; 2) Vatan; 3) Farhod; 4) Sohibi; 5) Gultish; 6) Qozidastor; 7) Buvaki; 8) Zarmiton; 9) Obidov; 10) Kattaqo'rg'on  
A) 4,5,7,10   B) 1,3,6,9   C) 5,7,8,10   D) 1,2,7,8
67. Lolasimonlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematiq birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.  
A) 1-*qo'ng'irbosh*; 2- *sharq sauri*; 3- *kartoshka*; 4- *bo'znoch*  
B) 1- *oq shuvoq*; 2- *sharq sauri*; 3- *baqlajon*; 4-*bo'ymadaron*  
C) 1- *piyozi arpa*; 2- *sekvoyadendron*; 3- *baliqko'z*; 4- *kakra*  
D) 1- *boychechak*; 2- *qarag'ay*; 3-*qizil ituzum*; 4- *qoqio'*
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoni; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta  
A) 4,6,10   B) 1,2,3   C) 5,6,7   D) 7,8,9
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoni;  
6) sporangiyband; 7) anteridiy; 8) sporalar; 9) rizoid; 10) sporangiy  
A) 1,2,9   B) 5,7,8   C) 6,8,10   D) 3,4,10
70. Devpechak, zarpechak barglarning yo'qolib ketganligi, ildiz o'mriga poyada so'rg'ichlar hosil bo'lib, uning yordamida "xo'jayin" o'simliklarni oziq moddalarni so'rib olishi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?  
A) *umumi degeneratsiya, biologik regress*  
B) *biologik progress, aromorfoz*  
C) *biologik progress, umumi degeneratsiya*  
D) *idioadaptatsiya, biologik regress*
71. Hindomalay biogeografik viloyatiga mansub sutemizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
1) orangutan; 2) xongul; 3) gibbon; 4) kapachi; 5) maral; 6) kanna; 7) bambuk ayig'i; 8) gorilla; 9) skuns; 10) iguana
- A) 1,3,7   B) 5,8,10   C) 2,4,6   D) 3,7,9
72. Paleoarktik biogeografik viloyatiga mansub tuyoqli sutemizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
1) zubr; 2) mufton; 3) sayg'oq; 4) koala; 5) maral; 6) kanna; 7) kabarga; 8) tog' kiyigi; 9) muskusli qo'y; 10) qunduz  
A) 1,4,7   B) 3,5,8   C) 2,6,9   D) 2,5,10
- KIMYO**
73. Poliakrilamid molekulasida 2250 dona vodorod atomlari bo'lsa, polimerlanish darajasini aniqlang.  
A) 250   B) 300   C) 450   D) 208,33
74. Propantriol-1,2,3 molekulasi tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.  
A) -5   B) -3   C) -4   D) -2
75. Quyidagi qaysi modda faqat oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?  
A) *PbO<sub>2</sub>*  
B) *H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>*  
C) *Cu<sub>2</sub>O*  
D) *Fe<sup>2+</sup>*
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislota eritmasida gidrolizlanganda 67 g modda hosil bo'ladi. Aminokislotani aniqlang.  
A) *valin*   B) *alanin*   C) *glitsin*   D) *leysin*
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 360 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.  
A) 85,2   B) 72   C) 98,4   D) 14,2
78. 26,5 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota olinadi? ( $\eta=0,75$ )  
A) 21,6   B) 28,8   C) 36   D) 27
79. Propanol, fenol va sirk kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 4,48 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday miqdordagi aralashma NaHCO<sub>3</sub> eritmasi bilan ishlanganda olingan gaz 195,6 g NaOH eritmasidan o'tkazilganda faqat NaHCO<sub>3</sub> tutgan 4,2% li eritma hosil bo'lди. Agar boshlang'ich aralashmada sirk kislotaning massasi propanol massasiga teng bo'lsa, sirk kislota massasini (g) aniqlang.  
A) 6   B) 24   C) 12   D) 3
80. Tarkibida 3 ta sp<sup>3</sup> - s qoplanish mavjud bo'lgan modda(lar) ni aniqlang.  
1) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; 2) H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>; 3) H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>; 4) HClO<sub>3</sub>  
A) 3,4   B) 1,2   C) 4   D) 3
81. Quyidagi qaysi modda alyuminiy xlorid bilan ta'sirlashmaydi?  
A) *natriy karbonat*  
B) *natriy sulfid*  
C) *natriy sulfat*  
D) *natriy gidroksid*
82. Glitserindan 1,2,3-tribrompropan (A) ( $\eta=40\%$ ), B dan 2,3-dibrompropen (B) ( $\eta=80\%$ ), B dan allen ( $\eta=100\%$ ) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 19,8 g ga kam bo'lsa, glitserindan necha gramm olingan?  
A) 46,0   B) 18,4   C) 27,6   D) 23,0
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO<sub>2</sub> gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'lди. Tereftal kislotani hosil qilgan uglevodorod massasini (g) aniqlang.  
A) 38   B) 45   C) 26,8   D) 53,6
84. 5:2 mol nisbatda olingan ishqoriy metal va uning gidriddan iborat 13,75 g aralashma mo'l svuda eritilishi natijasida 19,6 g ishqor hosil bo'lди. Metallni aniqlang.  
A) *K*   B) *Li*   C) *Na*   D) *Rb*
85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
HF→H<sub>2</sub>O→NH<sub>3</sub>→CH<sub>4</sub>   a) ortadi;   b) kamayadi

- A) I-a; 2-b; 3-a   B) I-b; 2-a; 3-b   C) I-b; 2-a; 3-a   D) I-b; 2-b; 3-b
86. 0,5 mol miqdorda olingen  $\text{XY}_2$  va  $\text{AY}$  birikmalarda mos ravishda  $13 \cdot N_A$  va  $5 \cdot N_A$  tadan elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.  
A) F   B) C   C) N   D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 1/4; 1/4; 1/2  
B) 1/7; 3/7; 3/7  
C) 1/9; 2/3; 2/9  
D) 2/5; 2/5; 1/5
88.  $^{246}_{\text{E}}\text{E} \rightarrow \text{x}\alpha + \text{y}\beta + ^{90}\text{Th}$  yadro reaksiyasida Th ning neytronlar soni E ning protonlari sonidan 46 taga ko'p bo'lsa, noma'lum element tarkibidagi neytronlar sonini aniqlang.  
A) 145   B) 130   C) 140   D) 152
89. Mis (II) nitrat kristallogidrati tarkibida kislороднинг масса улуси vodorodnikidan 24 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi.  
A) 4   B) 2   C) 3   D) 1
90. Tarkibida massa bo'yicha 28% Me, 24% S va 48% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang  
A)  $\text{Na}_2\text{SO}_3$   
B)  $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$   
C)  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$   
D)  $\text{FeSO}_4$
91.  $\text{A} + \text{x}\text{B} \rightarrow 2\text{C}$  reaksiyaning  $0,05 \cdot 10^2$  mol A moddaning 20%i sarflangan. B ning 25% ortib qolgan. Jarayon 1 litrl idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? Km=1)  
A) 2   B) 4   C) 3   D) 1
92. 450 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 48% li eritma hosil bo'ladi?  
A) 262,5   B) 125,5   C) 250   D) 200
93. 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Erigan moddaning molyar massasini (g/mol) aniqlang. ( Reaksiya sodir bo'lmaydi)  
A) 56   B) 40   C) 63   D) 98
94. Oleumga o'zining massasidan 1,5 marta kam suv qo'shilganda 65,4% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi hosil bo'ladi. Oleum tarkibidagi  $\text{SO}_3$  ning massa ulushini (%) toping.  
A) 30   B) 50   C) 40   D) 25
95. Eritmaning pH qiymati pOH qiymatidan 2,5 marta kam bo'lsa, pH qiymatini aniqlang.  
A) 6   B) 4   C) 7   D) 5
96. 7,2 g metal kislordanan 6,72 litr (n.sh.) vodorod siqb chiqarsa, 9,6 g metal qanday massadagi (g)  $\text{Fe}^{3+}$  ni siqb chiqaradi.  
A) 5,6   B) 28   C) 15   D) 11,2
97. Etibenzol  $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida oksidlangunda gaz ajralib chiqdi. Reaksiya tenglamasidagi koefitsiyentlar yig'indisini toping.  
A) 35   B) 56   C) 91   D) 42
98. 0,3 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang?  
A) 246,4   B) 96,4   C) 164   D) 182
99. Noma'lum III valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 17 (g/mol-ekv) ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
A) N   B) Cr   C) Al   D) P
100. Mo'l miqdordagi uglerod  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{CaO}$  aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 15,6 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 4 mol havo sarflandi.
- Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini g aniqlang.  
(Havo tarkibida hajm bo'yicha 20%  $\text{O}_2$  bor)  
A) 13,6; 16,8  
B) 54,4; 67,2  
C) 27,2; 33,6  
D) 27,2; 1,365
101. Moylarning qotishini tezlashtirish uchun ularga sikkativlar deb ataladigan katalizator ishlataladi. Sikkativ sifatida ishlataladigan katalizatorni aniqlang.  
A)  $\text{P}_2\text{O}_5$   
B)  $(\text{CH}_3\text{CO})_2\text{O}$   
C)  $\text{Pb}_3\text{O}_4$   
D)  $\text{H}_2\text{SO}_4$
102. Baryi xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki baryi xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
A) 524   B) 628   C) 208   D) 828
103.  $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + z\text{CO}_2$  ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
C)  $\text{MgCO}_3$  tarkibida qo'shimchalar borligini  
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Atomlari soni teng bo'lgan argon, azot va silan aralashirildi. 1,7 mol shunday gaz aralashmasidagi silanning hajmini (l,n.sh) aniqlang.  
A) 4,48   B) 22,4   C) 11,2   D) 5,6
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.  
A) 3:8   B) 3:4   C) 3:2   D) 1:1
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasinini susyatiradi?  
A)  $\text{MgSO}_4$   
B)  $\text{NaNO}_3$   
C)  $\text{K}_2\text{SO}_3$   
D)  $\text{ZnCl}_2$
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 20 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.  
A) etan   B) butan   C) pentan   D) propan
108. 26,8 g olma kislota stekiometrik nisbatda Na metali qo'shilganda olingen  $\text{H}_2$  ni 11,2 litr (n.sh.)  $\text{C}_2\text{H}_2$  bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingen gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?  
A) 1,2   B) 7   C) 1,4   D) 1,8